

O'ZBEK XALQ O'YINLARINING FOLKLORDA AKS ETISHI ("GO'RO'G'LINING TUG'ILISHI" VA "ALPOMISH" MISOLIDA)

Botir Normuratov

*Denov tadbirkorlik va pedagogika
instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek milliy xalq o'yinlarining xalq og'zaki ijodida aks etishi tahlil etildi. Maqolada "Go'ro'g'lining tug'ilishi" hamda "Alpomish" dostonlarida uchraydigan o'yinlar va ularning ahamiyatli jihatlari xususida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: milliy xalq o'yinlari, xalq og'zaki o'yinlari, oshiq, kurash, poyga, gartkam, yoyandozlik, qilichbozlik.

Insoniyatning ota-bobolaridan meros bo'lib qolgan boyliklari cheksiz bo'lib, ular milliylik, urf-odatlar, qadryatlar, maqollar, topishmoqlar, milliy o'yinlar va boshqalardir. Ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan milliy o'yinlar yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash, ularni sog'lom qilib o'stirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarni qo'rqmas, mard, dovyurak qilib tarbiyalash, chaqqon, topqir, tez fikrlovchi, mustaqil fikrlovchi, ahdida mahkam turishga o'rgatuvchi milliy vositalardan biridir. Qadimiy xalq o'yinlari va o'yin-qo'shiqlari, urf-odatlari, har bir xalqning bosib o'tgan tarixiy yo'li, yashash tarzi, entik kelib chiqishi va manaviy taraqqiyot bosqichlarini o'zida mujassam etadi. Milliy xalq o'yinlarining eng qadimiy va dastlabki manbalari xalq dostonlaridir. Dostonlarda bugungi kundagi sevib o'ynalayotgan bolalar o'yinlarining ilk shakllarini uchratish mumkin. Bolalar o'yinlari bilan "Bolalar folklori", "O'zbek xalq og'zaki ijodi", "Etnografiya" kabi fanlar shug'ullanadi va o'yinlar ustida tadqiqot olib boradi. O'zbek xalq ijodining qayta tiklanishi va xalqqa to'liqligicha yetib kelishi uchun H.Zaripov, Y.Rajabiy, H.Razzoqov, Muzayana Alaviya, Z.Husaynova, G.Qobulniyozov, T. Mirzayev, G'.Jahongirov, M.Saidov, B.Sarimsoqov, M.Murodov, O.Safarov, M.Jo'rayev kabi olimlar zahmat bilan mehnat qilganlar va mehnatlarining samarasi o'laroq ko'plar kitoblar, maqolalar chop ettirganlar. Bolalar folklori bo'yicha O.Safarov, G'.Jahongirov "O'zbek bolalar folklori" (1975), R.Yo'ldosheva "O'zbek xalq o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati" (1992), I.G'ulomova, K.Mahkamjonova "Bolalar bog'chalarida xalq o'yinlari" (1992), H. G'ofurovlarning "Xalq o'yinlari, qo'shiqlari va an'alariga bir nazar" kabi asarlari shu soha tadqiqotchilari uchun katta manba bo'ladigan ishlardir.

Xalq o'yinlarining bugungi kunga qadar yetib kelishiga asosiy vositalardan biri xalq dostonlaridir. Dostonlar qadimiylik jihatidan ming yillik tarixga ega xazinalardir. Shunday ekan xalq o'yinlarining eng qadimiy ko'rinishi ham ana shu

noyob asarlarda uchraydi. Xususan dostonlarning eng qadimiylaridan biri bo'lgan "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida ham bolalar o'yinlarining ayrimlarini uchratish mumkin. Masalan, "Ana endi Go'ro'g'li shu baytalni emib, qorni to'yib to'ymasday bo'lib yuraverdi. Baytal har kuni Go'ro'g'lini uch vaqt emizib keta berdi. Buning bilan Go'ro'g'lining kuni o'ta berdi. Go'ro'g'li uch yasharida go'rlarning ustida o'ynab, u yoqdan chiqqa, bu yoqdan chiqqa: "Os!", "Bos!" – deb go'rlarni tayoq bilan yanchib o'ynab yura berdi"³. Yuqoridagi parchadan bilish mumkinki, Go'ro'g'li yoshligidayoq tayoq bilan qilich chopish o'yinini mashq qiladi. Bu o'yinlar keyinchalik ulg'ayib tengsiz pahlavon yigit bo'lishiga ko'mak beradi. Go'ro'g'lining go'rda yashab yurganidan xabar topgan Rustambek uning qiz yoki o'g'il bola ekanligini sinash uchun shunday tadbir qiladi: "Rustambek, kelar oqshomi uch oshiq, bir qizil egar, yana bir-ikkita qo'g'irchoq, bir-ikkita ro'mol, uchta bolalar o'ynaydigan soqqa oldi. "Sinab bilayin, shu bola o'g'ilmikin, qizmikini", – deb egar bilan uch oshiqni bir yoqqa qo'ydi. Ikki qo'g'irchoq bilan ro'molni go'rning yog'iga qo'ydi. Poylab yotdi. Go'ro'g'li go'rdan chiqib, ro'mollarga ko'zi tushib, ro'mollarni, qo'g'irchoqlarni yirtidi. Ro'moldan har xil bayroqlar qildi. Go'rning bu yog'iga o'tdi, uch oshiqqa ko'zi tushdi, qo'liga olib, shu mozordagi o'liklarni barini keldim, gartkam, deb oshiqni yerga tashladi. Egarni minib "Chuv-ha, chuv-ha, ot qo'y, qaytma, boxabar bo'linglar", – deb egarni asta asta qimirlatib, go'rdan ancha yerga uzoqlab ketdi"⁴.

Asardan olingan parchadan kelib chiqib aytish mumkinki, oshiq o'ynash, qilich chopish, ot choptirish kabi o'yinlarni bundan ming yillar avval yashagan ajdodlarimiz ham o'ynashgan. Shu o'yinlarni o'ynash orqali o'zlarini katta hayotga tayyorlab borishgan. Parchadan anglashiladiki, o'sha davrlarda ham o'g'il va qiz bolalar o'ynaydigan o'yinlar va o'yinchoqlar alohida bo'lgan. O'zbek xalqi azaldan chorvachilik, dehqonchilik, yilqichilik qilib kun kechirgan. Shuning uchun ham xalqimizda ko'pkari, kurash, oshiq, kamonbozlik, qilichbozlik, yoyandozlik kabi xalq o'yinlari juda mashhur bo'lgan. Bu o'yinlar xalq sayllarida, to'ylarda ham ko'ngilxushlik qilish, ommaga yaxshi kayfiyat ulashish uchun o'tkazilib kelingan. O'zbek xalqining eng qadimiy o'yinlaridan biri bo'lgan olish (kurash)ning ham "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida uchrashi bu o'yinning uzoq tarixiy jarayondan, asrlardan o'tib kelayotganiga guvohlik beradi. Polvonlar kurash tushar ekan, ular shunchaki kurash tushmaydilar. Ular davraga or-nomus, g'urur talashib kirishgan. Kurash yoshlar uchun ham kattalar uchun ham birdek sevimlidir. Dostonda Go'ro'g'li G'irotni yo'qotib qo'yib, qidirib yurganida Asfar tog'idan topadi. Otni olib ketmoqchi bo'lganida Xizr alayhissalom kelib ot meniki deya da'vo qiladilar. Shunda : "– Tavba-ey, zamon yomon bo'lgan, gap o'g'riniki

³ Go'ro'g'lining tug'ilishi: xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019, 62-bet

⁴ Go'ro'g'lining tug'ilishi. O'sha asar. 63-bet.

bo'lganda, bo'lmasa mening xonazot otimni olib kep menikilab yurasizmi? E, bobo, xayr esa ikkovimiz bir olishamiz, qaysi birimiz yiqitsak, zo'r bo'lsa ot shunimizniki, – dedi. Go'ro'g'li o'z ko'nglida: “Buning bilan kurashib, belidan siqib olib qovurg'asini sindirguday qilib, bundan nari birovning oti-ku, oti hatto tozisini olmaydigan qilayin”, – dedi. Xizr aytdi: “Olishsang otangni yiq”, – degan gap bor. Kel bolam, olishsak olishaylik”⁵. Kurash bu – bahs. Kurash tushib yuradigan kishilar polvon deyiladi. Bu milliy o'yin bugungi kunda sport turi sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Polvonlik katta mehnat talab qiladigan kasbdir. Bu nom hammaga ham nasib etavermaydi. Xalq hammani ham polvon deb tan olmaydi. Olish or-nomus deb qadrlansa, olishda oshna-og'aynining, yurtning, qarindoshlarning, urug'ning or-nomusi, martabasi, nomi uchun olish tushiladi. Davra aylangan pahlavon shu qadar halol, mard kurashishi kerakki, dostonida aytilganidek “Olishganda, otasini ham yiqishi” kerak. Kurashda g'irrom bo'lmasligi kerak. Qadim podshohlik davrlarida podshohlar jang qilmasdan o'z polvonlarini olishtirib, kimning polvoni yutsa, o'shani kuchli deb tan olishgan. Kurash, merganlik, ot choptirish (poyga) kabi o'yinlar o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan o'yinlardir. Xalq og'zaki ijodining benazir durdonalaridan biri bo'lmish “Alpomish” dostonida ham yuqorida nomi zikr etilgan o'yinlarning namunalarini ko'rish mumkin. Alpomish kelganligining xabarini Barchinoyga yetkazib qaytayotganda Qorajon qalmoqlarga duch keladi va Barchinoyning shartlarini alplarga yetkazadi: “Poyga qilaman, otini o'zdirganga tegaman; kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman; yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga tegaman; ming qadamdan tanga-pulni urgan qarag'ay merganga tegaman”⁶, – dedi. Yuqoridagi misollardan kelib chiqib aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodi milliy o'yinlarning yetib kelishi uchun eng ko'p xizmat qilgan vositalardir. Xuddi shu dostonida yana shunday bir tasvir bor: “Qatorga tirkalgan lo'k bilan norcha

Ustiga yuklangan qirmizi parcha

Kamlikni ko'rmagan satta⁷ boyvachcha

Yo'l-yo'lakay uloq chopib boradi”⁸.

Dostonida ta'riflanadigan o'n ming uyli eliboylik (chorvachilik) qilib kun ko'ruvchi aholi yo'lda uloq chopib, ko'ngil xushlab ketishadi. Qadimda asosiy ulov ot va tuyalar bo'lgan. Ot chopish mard kishining ishidir. Ko'chib ketayotgan boylar yo'lning uzoqligini sezmaslik uchun, vaqtni o'ldirish uchun yo'lda poyga o'ynab

⁵ Go'ro'g'lining tug'ilishi: xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019, 154-bet.

⁶ Alpomish: xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019, 169-bet

⁷ Dostonida bu so'z **zap zo'r, eng saara** deya izohlangan. Bizningcha bu so'z fors-tojikcha sad-yuz sonini anglatadi. Bu o'rinda satta boyvachcha – yuzta boyvachcha degan ma'noda kelgan (B.N.).

⁸ Alpomish: xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019, 28-bet.

ketishadi. Yuqorida sanalayotgan o'yinlarning hammasi kishini jismonan sog' va baquvvat bo'lishiga ham ko'mak beradi. Dostonlarning avloddan avlodga o'tishida baxshilarning mehnatlarini e'tirof etmaslikning iloji yo'q. Birgina Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarning 40 dan ortiq turi mavjudligini hisobga olsak va dostonlar tarkibida kelgan o'yinlarni jamlab chiqsak, juda ko'plab o'yinlar topilishi aniq. Milliy o'yinlar azaldan ajdodlarimiz madaniy hayotining ajralmas qismi sifatida ardoqlanib kelinadi. Ayrim o'yinlarning ildizlari juda qadimiy bo'lib, ular asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishga, ong-u tafakkuri va his-tuyg'ularini teranlashtirishga xizmat qilgan. O'yinlarda xalqning turmush tarzi, mehnati, yutuqlari o'z aksini topadi. Shu bois ular yosh avlodlarni tarbiyalashda muhim vosita vazifasini o'taydi. Milliy xalq o'yinlari turli hududlarda har xil o'ynaladi. Bu o'yinlarni to'plab areal kesimda tahlil qilish o'z yechimini kutayotgan mavzulardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Go'ro'g'lining tug'ilishi: xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019, 208 bet
2. Alpomish: xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019, 576 bet
3. Рӯзикул Мустафоқулов Ўзбек халқ миллий ўйинлари (Услубий кўлланма) – Термиз: “Сурхон-Нашр”, 2019 й. 120 бет
4. Охунжон Сафаров Ўзбек болалар фольклори. – Тошкент: 2008, 298 бет
5. Usmanxodjayev T. S. va boshq.; Milliy va harakatli o'yinlar. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2015. 268 bet.